

XII. KORXONA VA TASHKILOTLAR

FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(Adliya boshqarmasi huzuridagi Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilning 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 40 820 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 27 634 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 67,7 % ni tashkil qildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (32,3 %), Chust (8,2 %), Uchqo'rg'on (6,6 %) va Uychi (6,5 %) tumانлари hissalariga to'g'ri keladi.


Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(2024- yilning 1- yanvar holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	40 820	100,0	27 634	100,0
Namangan sh.	13 164	32,3	8 539	30,9
Mingbuloq	1 895	4,6	1 296	4,7
Kosonsoy	2 504	6,1	1 640	5,9
Namangan t.	2 588	6,3	1 726	6,3
Norin	2 084	5,1	1 404	5,1
Pop	2 582	6,3	2 002	7,2
To'raqo'rg'on	2 565	6,3	1 836	6,6
Uychi	2 630	6,5	1 657	6,0
Uchqo'rg'on	2 693	6,6	1 927	7,0
Chortoq	2 594	6,4	1 756	6,4
Chust	3 340	8,2	2 382	8,6
Yangiqo'rg'on	2 181	5,3	1 469	5,3

Ro'yxatdan o'tgan subyektlarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

(2024- yilning 1- yanvar holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (32,6 %)), sanoat (20,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (8,4 %) hamda qurilish (6,6 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

(2024- yilning 1- yanvar holatiga)


	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	Birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	36 210	100,0	23 293	100,0

shu jumladan:


qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 390	9,4	1 911	8,2
sanoat	8 286	22,9	4 928	21,2
urilish	2 688	7,4	1 652	7,1

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	Birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
savdo	13 301	36,7	9 052	38,9
tashish va saqlash	1 394	3,8	964	4,1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 980	5,5	1 322	5,7
axborot va aloqa	576	1,6	380	1,6
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	780	2,2	640	2,7
boshqa turlari	3 815	10,5	2 444	10,5


Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni
*(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Xususiy korxona




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis xujjalari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Oilaviy korxonalar soni

(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




- Ro'yxatdan o'tgan
- Faoliyat ko'rsatayotgan
- Yangi tashkil etilgan

Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 1 450 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 36 taga yoki 2,5 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 960 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 377 taga yoki 71,8 foizni tashkil etdi.

2024 yil 1 yanvar holatiga yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 172 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 149 taga yoki 53,6 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining
hududlar kesimida soni**
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 27 808 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 602 taga yoki 10,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 18 044 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 6 241 taga yoki 74,3 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.

2024 yil 1-yanvar holatiga yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 268 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 644 taga yoki 86,9 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan
jamiyatlarining hududlar kesimidagi soni
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)**

Namangan sh.	6 009
Pop	1 336
Chortoq	1 317
Uchqo'rg'on	1 272
Chust	1 167
Uychi	1 130
Kosonsoy	1 092
Namangan	1 071
To'raqo'rg'on	1 047
Norin	947
Yangiqo'rg'on	939
Mingbuloq	717


2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 6 009 ta (jamidagi ulushi 33,3 %), Pop 1 336 ta (7,4 %), Chortoq 1 317 (7,3 %), Uchqo'rg'on 1 272 ta (7,0 %), Chust 1 167 ta (6,5 %), Uychi 1 130 ta (6,3 %), Kosonsoy 1 092 ta (6,1 %), Namangan 1 071 ta (5,9 %), To'raqo'rg'on 1 047 ta (5,8 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha eng kam Mingbuloq 717 ta (4,0 %), Yangiqo'rg'on 939 ta (5,2 %) tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalari jamiga nisbatan ulushi, foizda




Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish
 O'rmon xo'jaligi
 Baliqchilik xo'jaligi



2023-yil yanvar-dekabr oylarida jami 4 778 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82,8 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (1 257 ta), Uchqo'rg'on (454 ta), To'raqo'rg'on (377 ta), Chortoq (391 ta), Pop (327 ta), Mingbuloq (327 ta), Chust (341 ta), Uychi (286 ta), Kosonsoy (274 ta), Norin (252 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kami esa, Namangan (250 ta) va Yangiqo'rg'on (242 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.


**Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda
(2024-yilning 1-yanvar holatiga)**



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(2024-yilning 1-yanvar holatiga)**




**Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxona
va tashkilotlarning soni, birlikda
(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning ulushi savdoda 38,8 %, sanoatda 17,8 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 9,6 %, qurilishda 4,4 % ni tashkil etadi.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning
ijtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da
(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)**



2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

51,7 %



Sanoat

4,6 %



*Qishloq, o'rmon va
baliqchilik
xo'jaligi*

16,3 %



Savdo

20,9 %




*Yashash va
ovqatlanish bo'yicha
xizmatlar*

2,9 %



*Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar*

1,2



Boshqa turlar

2024 yil 1 yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 23 136 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2023 yil mos davriga nisbatan 71,6 % tashkil qilgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi, ya'ni 7 192 tasi (jami sub'ektlarning 31,1 %) Namangan shahriga, 2 038 tasi (8,8 %) Chust, 1 646 tasi (7,1 %) Pop, 1 646 tasi (7,1 %) Uchqo'rg'on, 1 385 tasi (6,0 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 1 048 tasi (4,5 %) Mingbuloq, 1 149 tasi (5,0 %) Norin, 1 167 tasi (5,1 %) Yangiqo'rg'on, 1 351 tasi (5,8 %) Kosonsoy tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining
hududlar bo'yicha soni

	2023- yil 1- yanvar holatiga		2024- yil 1- yanvar holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	32 305	100,0	23 136	100,0
Namangan sh.	10 657	33,0	7 192	31,1
Mingbuloq	1 404	4,3	1 048	4,5
Kosonsoy	1 978	6,1	1 351	5,8
Namangan t.	2 128	6,6	1 480	6,4
Norin	1 617	5,0	1 149	5,0
Pop	1 995	6,2	1 646	7,1
To'raqo'rg'on	2 042	6,3	1 551	6,7
Uychi	2 112	6,5	1 385	6,0
Uchqo'rg'on	2 101	6,5	1 646	7,1
Chortoq	1 958	6,1	1 483	6,4
Chust	2 667	8,3	2 038	8,8
Yangiqo'rg'on	1 646	5,1	1 167	5,1

Faoliyat ko'rsatayotgan jami 23 136 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 9 023 tasi (39,0 %) - savdoda, 4 880 tasi (21,1 %) - sanoatda, 1 899 tasi (8,2 %) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 1 642 tasi (7,1 %) - qurilishda, 1 318 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 960 tasi (4,2 %) - tashish va saqlashda, 634 tasi (2,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 380 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek,

2 400 tasi 10,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.


**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da
(2024-yilning 1-yanvar holatiga)**



2023 yil yanvar-dekabr oylarida jami 4 636 ta kichik tadbirkorlik subyektlari yangi tashkil etilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 85,1 foizni tashkil etgan.

Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (1 211 ta), Uchqo‘rg‘on (449 ta), Chortoq (377 ta), To‘raqo‘rg‘on (370 ta), Chust (331 ta), Mingbuloq (322 ta), Pop (312 ta), Uychi (283 ta) va Kosonsoy (261 ta) tumanlariga, eng kam tashkil etilganlari esa, Yangiqo‘rg‘on (231 ta) va Namangan (242 ta), Norin (247 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo‘yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko‘p tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (1 851 ta), sanoatda (851 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (459 ta), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda (277 ta) hamda qurilishda (207 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (111 ta), axborot va aloqada (126 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko‘rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ro‘yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo‘lmoqda.

Jumladan, 2024- yilning 1- yanvar holatiga Namangan viloyatida jami ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining umumiy sonida faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 35,8 % ni (12 885 ta) tashkil qilgan, ularning soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 11 592 taga ko‘paygan.

Hisobot davrida 2 405 ta kichik tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati tugatilgan bo‘lib, ulardan 1 953 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 81,2 %) ixtiyoriy tugatilgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2023- yil yanvar-dekabr)**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 234 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 83 taga yoki 73,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 117 tasi qo'shma korxonalar, 117 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma
korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda
(2024- yilning 1- yanvar holatiga)

Xorijiy korxonalar
117

Jami
234

Qo'shma korxonalar
117



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda
(2024- yilning 1- yanvar holatiga)





Namangan viloyatining 2023-yil yanvar-dekabr oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahar 103 ta (44,0 %), Pop 29 ta (12,4 %), Chust 18 ta (7,7 %), Kosonsov 16 ta (6,8) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Mingbuloq 3 ta (1,3 %), Uchqo'rg'on 6 ta (2,6 %), Norin 7 ta (3,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalg etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi

korxonalarning hududlar bo'yicha soni va ulushi

(2024-yilning 1-yanvar holatiga)

	Birlik	Jamiga nisbatan ulushi % da
Viloyat jami	234	100,0
Namangan sh.	103	44,0
Mingbuloq	3	1,3
Kosonsov	16	6,8
Namangan t.	9	3,8
Norin	7	3,0
Pop	29	12,4
To'raqo'rg'on	8	3,4
Uychi	14	6,0
Uchqo'rg'on	6	2,6
Chortoq	11	4,7
Chust	18	7,7
Yangiqo'rg'on	10	4,3


Faoliyat ko'rsatayotgan 234 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 102 tasi (43,6 %) sanoat, 56 ta (23,9 %) savdo, 18 ta (7,7 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 13 tasi (5,6 %) qurilish, 8 tadan (3,4 % dan) tashish va saqlashda hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7 tasi (3,0 %) sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 19 tasi (8,1 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi
(2024-yilning 1-yanvar holatiga)**

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	234	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	18	7,7
sanoat	102	43,6
qurilish	13	5,6
savdo	56	23,9
tashish va saqlash	8	3,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8	3,4
axborot va aloqa	3	1,3
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	3,0
boshqa turlari	19	8,1

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da
(2024-yilning 1-yanvar holatiga)**



2023-yil yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 56 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14 taga yoki 33,3 foizga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 17 ta, Rossiya Federatsiyasi – 9 ta, Turkiya – 8 ta, Janubiy Koreya – 6 ta, Tojikiston – 4 ta, Qozog'iston – 3 ta va boshqa 12 ta davlatlardan 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Viloyatdagi 56 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar (32 ta), Pop, Chust (5 tadan), Kosonsoy, Chortoq va Yangiyo'rg'on (3 tadan), To'raqo'rg'on, Uychi (2 tadan), Norin (1 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Mingbuloq, Namangan va Uchqo'rg'on tumanlarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
hududlar kesimidagi soni va ulushi
(2023-yil yanvar-dekabr)**

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	56	100,0
Namangan sh.	32	57,0
Mingbuloq	-	-
Kosonsoy	3	5,4
Namangan t.	-	-
Norin	1	1,8
Pop	5	8,9
To‘raqo‘rg‘on	2	3,6
Uychi	2	3,6
Uchqo‘rg‘on	-	-
Chortoq	3	5,4
Chust	5	8,9
Yangiqo‘rg‘on	3	5,4


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoat va savdoda 18 tadan, tashish va saqlashda 5 ta, yashash va ovqatlanish 3 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, qurilish, axborot va aloqa, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 2 tadan hamda boshqa xizmatlar ko‘rsatishda 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari

**bo‘yicha soni, birlikda
(2023- yil yanvar-dekabr)**



2023- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni, 2024- yil 1- yanvar holatiga 1 450 tani tashkil etib, ulardan 960 tasi yoki 66,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro‘yxatidan o‘tganlarning umumiy soniga nisbatan o‘rtacha 28,4 % ga oshganligini ta’kidlash mumkin.